




Yoshlar o'rtasida mamlakatimiz boy tarixini, uning betakror madaniyati va milliy qadriyatlarini keng targ'ib etish, jahon ilm-fani va adabiyoti yutuqlarini yetkazish uchun zarur muhit va shart-sharoit yaratish zarur.
Shavkat MIRZIYOYEV

IJODIY PARVOZ

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy, axborot gazetasi

2-iyul – O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi qabul qilingan kun!



Davlat gerbi O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 2-iyuldagi 616-XII-sonli «O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi to'g'risida»gi qonuni bilan tasdiqlangan.

O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi quyidagi ko'rinishga ega: tog'lar, daryolar va so'l tomoni bug'doy boshloqlaridan, o'ng tomoni esa chanoqlari ochilgan g'oz shoxlaridan iborat chambarga o'ralgan gullagan vodiy uzra quyosh zarrin nurlarini sohib turadi. Gerbning yuqori qismida Respublika hurligining ramzi sifatida sakkizburchak tasvirlangan bo'lib, uning ichki qismida yarim oy va yulduz tasvirlangan. Gerbning markazida baxt va erksevarlik ramzi – qanotlarini yozgan Humo qushi tasvirlangan. Gerbning pastki qismida O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'ini ifoda etuvchi chambar lentasining bandida «O'zbekiston» deb yozib qo'yilgan.

Muhammad YUSUF,
O'zbekiston xalq shoiri

IQROR

O, ota makonim,
Onajon o'lkam,
O'zbekiston, jonim to'shay soyangga.
Senday mehribon yo'q,
Seningdek ko'rkam.
Rimni alishmasman bedapoyangga.

Bir go'sha suv bo'lsa, bir go'sha qirlar,
Qancha yurti ko'rdim, qancha taqdirlar.
Qayga borsam suyb, boshni tik tut deb,
Tog'laring ortimdan ergashib yurar.

Ko'rdim suluvlarning eng faranglarin.
Yo xudbinman men, yo bir sodda kasman men:
Parijning eng go'zal restoranlarin
Bitta tandiringga alishmasman men.

Na gapga ko'nayin,
Na til bilayin,
Ko'zdan uyqu qochdi, dildan halovat –
Uch kunda sog'insam nima qilayin?..
Chala qolar bo'ldi hamma sayohat.

Bildimki, baridan ulug'i o'zing,
Bildimki, yaqini shu tuproq menga.
Bahorda Baxmalda tug'ilgan qo'zing
Arab ohusidan azizroq menga.

Sen bilan o'tgan har kun bayram-bazm,
Sensiz bir on qolsam, vahmim keladi.
Seni bilganlarga qilaman ta'zim,
Seni bilmaslarga rahmim keladi.

O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTINING FARG'ONA MINTAQAVIY FILIALI 3 YOSHGA TO'LDI

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirmonovich Mirziyoyevning 2017-yil 16-avgust kunidagi "O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Farg'ona mintaqaviy filialini tashkil etish to'g'risida"gi qarori bilan Qo'qon shahrida, Farg'ona vodiysida yagona hisoblangan O'zDSMI Farg'ona mintaqaviy filiali o'z faoliyatini boshlagan kunga 3 yil to'ldi. Shu uch yil mobaynida bitta yo'nalish, ya'ni 24 nafar talaba bilan faoliyatini boshlagan filialimiz hozirga kelib, o'nta turli yo'nalishlarga ega bo'ldi va hozirda 300 nafarga yaqin talabalar tahsil olishmoqda. Filialda 70dan ortiq professor-o'qituvchilar, xalq artistlari, xizmat ko'rsatgan artistlar, san'at arboblari, kompozitorlar, jo'rnavoz sozandalar, konsertmeysterlar, ilmiy va mehnat xodimlari faoliyat yuritishmoqda. 2018-yilda O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tashabbusi bilan filial o'quv binosining bir qismi kapital rekonstruksiya qilindi hamda barcha yo'nalishlar uchun mo'ljallangan o'quv va ijod xonalari, majlis-

lar zali, sport to'garaklari, ovoz yozish studiyasi kabi bir necha xonalar kerakli zamonaviy raqamli texnik vositalar hamda jihozlar bilan ta'minlandi. Ustoz va talabalarining erkin ijod bilan shug'ullanishlari uchun shart-sharoitlar yo'lga qo'yildi.

Filialimiz "Oriental art and culture" nomli o'z jurnaliga ega. Har oyda "O'zbekistonda ilm-fan va ta'lim" mavzuyi ostida masofaviy ilmiy-konferensiya o'tkazilmoqda. 2020-yil fevral oyida FarDU va QDPI talabalari o'rtasida "Teatr san'ati va xalq ijodiyoti dolzarb muammolari" nomli qo'shma konferensiya tashkil etildi. Filial professor-o'qituvchilari tomonidan 11ta o'quv qo'llanma va bitta darslik tayyorlanib chop etildi. Shu yilning o'zida filial o'qituvchilari ichidan 1 nafar professor, 1 nafar vazifasini bajaruvchi dosent va 2 nafar katta o'qituvchi unvonlariga sazovor bo'lganlar yetishib chiqishdi. 2020-yil iyul oyida Qozog'iston san'at akademiyasi bilan akademik hamkorlik shartnomasi imzolandi. Britaniya kengashining

"Creative Spark" dasturida filial xodimlari ishtirok etib kelmoqda. Filial professor-o'qituvchilari tomonidan respublika va xorijiy ilmiy jurnal va konferensiya yuqori Inpakt faktorli ilmiy jurnallar, "Scopus" bazasiga kiruvchi jurnallarda yuzdan ortiq ilmiy maqolalar chop etildi.

Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlaridan saralab olingan iqtidorli, iste'dodli talabalar filialda tahsil olish bilan bir qatorda, turli xil davlat tadbirlarida, festivallarda, xayriya konsertlarida ustoz-murabbiylar bilan birgalikda ijodiy mahoratlarini ko'rsatib kelishmoqda. Misol tariqasida, birgina "Musiqali teatr aktyorligi" yo'nalishi talabalari tomonidan o'ndan ortiq professional spektakl va konsert dasturlari tomoshabinlar hukmiga havola etildi. Bu erishilgan yutuqlar zaminida filialning faxriy professor-o'qituvchilari bo'lgan O'zbekiston xalq artistlari Shafoatxon Rahmatullayeva, Yorqinoy Hotamova, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar Jo'raxon Po'latov, Xursanoy Umarova, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi

Karim Yo'ldoshev, O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi a'zosi, "Shuhrat" medali va "Fidokorona mehnatlari uchun" ordeni sohibi Rafiqjon Ahmedov hamda jonkuyar rahbar O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Farg'ona mintaqaviy filiali direktori, professor Shamsiddin Usmonovning mehnatlari alohida diqqatga sazovordir. Shu bilan birga, filial professor-o'qituvchilari tomonidan Qo'qon shahrimizdagi umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilari hamda mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari uchun mahorat darslari (master klass) o'tkazilib borildi.

Ayni damda karantin sababli, 16-mart 2020-yildan boshlab masofaviy ta'lim tizimi joriy etildi va filialda online dars mashg'ulotlari yo'lga qo'yildi. Talabalarining bilim olishlari va ijod etishlari uchun qulay sharoitlar yaratgan holda, filial professor-o'qituvchilari tomonidan tashkil etilgan masofaviy darslar ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalari hamda "Farg'ona" viloyat telekanali orqali eifirga uzatilmoqda.

КОРОНАВИРУС

Яратган барчамизни бир силкитиб олди. Яна бир бор огоҳликка, кўзимизни каттарок очишга, тафаккур килиб олишга чақирди.

Тафаккур килинг: коронавирус балоси нима сабабдан бутун дунёни чулғаб олди? Инсонлар ҳаром килинган ҳайвону жонзотни ея бошлади. Кимлардир ҳазарни, ҳаром-хариш-ни унутди. Жамиятда қайси йўллар билан бўлса ҳам бойлик орттиришга ружу қўйиш, пул топишни бахт деб билиш кучайиб борди. Ҳақиқий бахт-ни нимада эканлигини мушоҳада қилмай қўйдик. Теварак-атрофдагиларга, шунингдек, табиатга беписандлик билан қараш, динни, иймонни, диё-нату андишани унутиш кучайди. Шукур ва тавба қилиш ёддан чиқа бошлади. Муқаддас бўлган сув, ҳаво ва ерни авайлаб-асрашга безътиборлик авж олди. Отага, устозга тик боқиш, уларга нисбатан ноҳақ муносабатларда бўлиш, ҳаттоки уларга тухмат қилишдан ҳам тоймай қўйдик.

Боболаримизнинг асрлар оша келаётган ўғитларини безътибор қолдирдик. Бир тўғрам нонга, бир коса овқатга қорнимиз тўйишини унутдик, биз исрофга кенг йўл очдик. Уч соатлик тўйимизга бутун бир маҳаллани бир ҳафта таъминлашга кетадиган харажатни сарф этишдан қайтмадик. Ноннинг азизлигини, сувнинг муқаддас неъматлигини унута бошладик. Уй қуришда, ҳашаматли ҳаёт кечиришда, тўю маъракаларни ўтказишда ким ўзарликка йўл қўйдик. Булардан фахрланиш, кибр-ҳавога берилиш авж олди. Лафзни унутдик, олган қарзимизни вақтида қайтармаслик, ҳатто ундан тониш кучая борди. Яратган у дунёга борганинг фақат бу дунёдаги қарзинигина авф этмаслигини, бўйнида қарзи билан кетаётган инсонга жаноза ўқилмаслигини (майитнинг тириклигида қарзи бўлиб, уни вақтида уза олмаган бўлса, жаноза ўқилиши-гача, унинг қарзини кимдир зиммасига олмаса) унутаёздик. Илм олиш келажак калити, олимларга, устозларга салом – Пайғамбарларга салом эканлигини назардан қочира бошладик. Буюк Навоийнинг “Шогирд агар шайх

ул-ислом, агар қозидур, агар устоз андин розидур, тенгри розидур”, деган сўзларига беписандлик билан қарайдиган, ҳаттоки айримларимиз устозларнинг устидан кула бошладик. Айни замонда, баъзиларимиз устоз деган буюк номга доғ туширишгача бордик.

Адолат, ҳалоллик, иймон, диёнат, инсоф, саховатпешалик, мухтожларга ёрдам, кўнгли ўксикларнинг кўнглини кўтариш, катталарга ҳурмат, кичикларга шафқат, одамларнинг оғирини енгил қилиш, ҳеч қачон бировга ёмонлик қилмаслик каби ҳақиқий инсонийликка хос фазилатлар камая бошлади. Қайсидир юртларда оила муқаддаслиги, фарзанд кўришдек олий неъмат кадри йўқола бошлади. Шу даражага етдикки, айрим жойларда бир жинсдагиларнинг оила қуриши тартиби жорий этила бошлади. Кўпгина давлатларда болалар боғчасида туғилиш камайиб кетганлиги боис, болалар шовқини камайиб кетди, ҳатто эшитилмай ҳам қолди. Демографик мувозанат бузила бошлади. Худбинлик авж олди, ўз манфаатини ҳаммадан юқори қўйишлик шу даражага етдики, атрофдагилар билан умуман ҳисоблашмай қўйдик. Эгоизм керагидан ортиқ кучайди. Кекса ота-онамизнинг касалмандлиги, инжиқликлари бизга малол кела бошлади, уларнинг аҳволдан тез-тез хабар олишимиз қандайдир ғуруримизга тега бошлади.

Буларни нега бирма-бир ёзиб чикяпман?

Бугун дунёнинг жуда кўп давлатларида коронавирус туфайли карантин эълон қилинди ва барчамиз уйимизга қамалиб олиб, ўзимизни ҳимоя қиялпмиз. Ижтимоий тармоқларда кўп ёзилаптики, коронавирусдан кейин инсонлар ҳаётга бутунлай бошқара қарай бошлайди. Давлатлар ўртасидаги муносабатлар ҳам бошқача бўлади.

Бугун уйимиздан кўчага чикмасдан тафаккур қилиш имконияти пайдо бўлди. “Нега бу бало пандемия даражасига чиқиб кетди, нега қаердадир жуда авж олган, қаердадир суст?” деган савол туғилади. Ҳар ишдан бир хайр деганларидек, биз ҳам айни шу карантин вақтида ҳар биримиз тафак-

кур қила бошлаган бўлсак, не ажаб? Уйда ўтириб, кўча-кўйда эмин-эркин юриш, иш жойимизга бориб келишимиз, тўй-ҳашам қилишимиз, меҳмон чақиришимиз, меҳмонга боришимиз, фарзандларимизни ҳар куни боғчага, мактабга ёки олий таълим муассасасига кузатиб қолишимиз, театр, кино, концертларга тушишимиз, бир-биридан гўзал ва озода ошхоналарда истеътаган таомимизни тановул қила олишимиз, ўқувчи-талабалар учун дарс машғулотларида ўтиришлари инсоният учун ЯРАТГАН томонидан инъом қилинган буюк бахт эканлигини энди ичдан ҳис эта бошладик.

Мен шу кунларда коноравирусдек балонинг бунчалик кенг ёйилиши, бу дард олдида дунёнинг энг ривожланган, манамен деган давлатлари ҳам ожизлик қилаётганлиги борасида кўп мулоҳаза қилдим. “Нега бу дард бунчалик тез тарқалмоқда, нега унинг давоси ҳануз топилмаяпти?” деган саволларга ўзимча жавоб изладим. Балки, Яратган бизга “Тўхта, эй, бандам, қаёққа қараб кетяпсан? Қара, Сен учун муқаддас қилиб яратганим Ер курраси билан қандай аёвсиз муносабатда бўлмоқдасан? Бутун мавжудотни, борликни йўқ қилиб ташла-япсан, сени тарбиялаган, вояга етказган, ривожлантирган, таъминлаб келган Ерни харобазорга айлантиряпсан, бутун оламни йўқликка маҳкум этгучи учинчи жаҳон уруши томон инти-моқдасан, Ер торлик қила бошлаган-дек ҳис эта бошладинг. Тўхта, одам-зод! Кўзингни оч, ўзингни ўнглаб ол!” дея хитоб қилаётгандек.

Зора, бу дарддан тезроқ қутулсагу, одамзод ўзига келиб, эзгулик сари интилса. Юқорида санаб ўтган инсоний фазилатлар ривож топса. Навоий бобомиз айтганидек, бу дунёда бир-биримизга дўсту ёр бўлиб яшасак, душманликни, ғайирликни унутсак!

Бугун Интернетда коронавирус ҳақидаги бир ёзувга кўзим тушди: “Вирус тирик организм бўлмасдан оксилдан иборат молекуладир. Унинг атрофи липид, яъни ёғдан иборат бўлиб, унинг ҳимоя воситасидир. Айни шу вирус кўз ва буруннинг шил-

лиқ қисмига кирганда ўзининг генетик кодини ўзгартиради ҳамда агрессив ҳолатга келади. Унинг ягона ҳимоя воситаси ўраб турган ёғ қатламидир. Уни бартараф этиш учун ана шу ёғ қисмини эритиш керак. Бунда асосий восита сифатида совун ёки ювиш воситалари қўл келади. Шунинг учун ҳам қўлимизни камида 20 сониягача совун билан ювишимиз тавсия этилмоқда. Шу вақт оралиғида совун кўпириши керак, айни шу совун кўпи-ги шу вақт оралиғида вируснинг ҳимоя воситаси бўлган ёғни эритади, натижада вирус таъсирсиз ҳолатга келади, яъни ўлади. Яна бир усул: иссиқлик ҳам ёғни эритади. Шу боисдан 25 даража иссиқликдаги сувда қўлимизни совунласак, у яхши кўпиради ва вируснинг ёғ қобиғини тез эритиб, уни ҳалокатга олиб келади”. Шунда мен нима учун оғзимиз ва бурнимизга ниқоб тақиб юришимизни, қўлларимизни 20 сониядан кам бўлмаган вақт оралиғида совунлаб, тез-тез ювиб туришимиз лозимлигини тушуниб етдим. Оммавий ахборот воситалари орқали ҳам айни шу амалларни бажариш тавсия этилмоқда. Демак, вирус билан курашишнинг асосий воситаси тозалик, озодалик экан. Шунда мен муқаддас Ислом динимизда тозаликка бу қадар катта эътибор берилганлиги боисини яна бир бор англаб етдим. Беш вақт намоз учун ҳар сафар таҳорат олиш, бунда бурунни, оғизни уч мартадан тозалаш шартлиги бежиз эмас экан. Умуман, муқаддас “Қуръони Карим” Яратган томонидан бизга инъом этилган нафақат диний, балки мукаммал илмий бир асардир. Уни чин маъносида англашимиз, тафаккур этишимиз муҳимдир.

Мен бугун орамизда саховатпеша инсонларнинг кўплигидан мамнун бўлдим. Ҳали орамизда меҳр-оқибат тамоман кўтарилиб кетмаганидан, ёрдамга мухтож оилаларимиз ҳолидан хабар олувчи инсонлар кўплиги бизни қувонтиради.

Иброҳим ЙЎЛДОШЕВ,
ЎзДСМИ ректори,
филология фанлари доктори,
профессор

ДОНИШМАНДАГА ҲАР КУНИ ЯНГИ ҲАЁТ ҚУЧОҚ ОЧАДИ. НОДОН УЧУНЧИ?

Тун-кун, ер-осмон, ой-куёш, дўст-душман, яхши-ёмон – бу каби сўзларни санасак, адоғи йўқ ва сиз бунинг фарқини яхши англайсиз. Шундан донишмандлик ва нодонлик деганда ҳаёлингизга нима келади?

Одамзод табиатининг энг фожиавий жиҳатларидан бири, менинг назаримда, ўз орзу-умидларимизни руёбга чиқаришни орқага ташлашга мойилликдир. Биз уфқ ортида беркинган гулларга ғарқ тўлган сеҳрли боғларни орзу қиламиз, ваҳоланки, бундай гуллар деразамиз тагида ўсади, ундан баҳраманд бўлгимиз келмайди.

Биз нега бу қадар нодонмиз, ҳаддан ортиқ нодонмиз?

Дейл Карнегининг куйдаги сўзини исбот ўрнида келтириш мумкин:

“Умримиз деб аталадиган вақтнинг кичик бўлагини нега Бу қадар ғалати ўтказамиз”, – деб ёзган эди Стивен Линок (Дейл Карнеги. 16-бет).

– Бола: “Қачон катта бўламан?” – дейди. Хўш, бу нимани англатади? Ўсмир: “Мен қачон йигит бўламан?” – дейди. Ниҳоят, йигит бўлиб етилгач: “Қачон уйланаман?” – дейди. Уйланади ҳам, аммо шунда ҳам деярли ҳеч нарса ўзгармайди. У яна ўй суради: “Қачон нафақага чиқаман”. Нафақа ёшига етгач, ўтган умрига назар ташлайди ва аччиқ изғирин шамол юзига урилиб, унинг кўзи олди-

да шафқатсиз ҳақиқат очилади: умрининг қанчаси беҳуда ўтибди, бари қайтмас бўлиб кетибди. Биз бу ҳаётнинг асл мазмуни унинг ўзида, ҳар бир кун, соатлик маромида эканлигини ҳаддан зиёд кеч тушунамиз”.

Бу шу қадар оддий ва содда ўқув қўлланмасига ўхшайдики, уни ҳар бир инсон умри давомида варақлаб кимдир англайди ва яна кимдир эса йўқ. Ён-атрофимизда бўлаётган воқеаларда бевосита бўлмаса ҳам, билвосита иштирок этамиз. Аммо билмаймизки, бунинг оқибати қандай яқун топади?

Ўзимизча донишмандлик деб билган ишимиз аслида нодонлик ҳам булиши мумкин. Азалдан боболаримиз:

“Яхшига ёндош, ёмондан нари бўл!” деб уқтиришган. “Қозонга яқин юрсанг, қораси юқади”, деган гап ҳам бежиз айтилмаган. Нодонликнинг кундан-кун, авж олишига сабаб эҳтимол ён-атрофимиздагилар ва беҳуда ўта-казаётган вақтимиздир. Саволлар кўп жавобга келганда бош қашлашдан на-рига ўтмаймиз. Юқоридаги фикрлар билан кимгадир донишмандлик қилишни кўзламадим, шунчаки, ҳулосани ўзингизга қолдираман. Ваҳоланки, қандай яшаш бу сизнинг танловингиз.

Тахмина ЭРГАШЕВА,
“Саҳна ва экран санъати
драматургияси” таълим йўналиши
3-курс талабаси

BUYUK MAQSADLARGA SAFARBAR INSON

Toshkentning Mirobod bozorini ko'rgan bo'lsangiz kerak. Shu bozorga tutash ko'chalardan biri Sapyorlar (hozirda Mirobod) nomi bilan atalar edi. U temir yo'l vokzali bilan Tuproqqo'rg'on-dagi (hozirgi Prezident Devoni atroflari) harbiy gornizonni bir-biriga bog'lagan. Bu yerlarda ko'proq temir yo'l ishchilari hamda askarlar istiqomat qilganlar. Yigirmanchi asr boshlarida bu yer ijtimoiy voqealarning qaynagan joylaridan edi.

Ana shu ko'chadagi 74-uyda xalqimizning atoqli farzandi Abdulla Avloniy yashagan. Saqlanib qolgan tabarruk dastxatlar, yuzlab kitob va hujjatlar guvohlik berishicha, Abdulla Avloniy o'zbek bolalar adabiyoti, o'zbek milliy teatri, dramaturgiyasi, pedagogika va matbaachiligining asoschilaridanidir. Avloniy Turkistonda juda katta ijtimoiy-ma'rifiy ishlarni amalga oshirgan jadidlar harakatining ko'zga ko'ringan namoyandalaridan edi.

Yigirmanchi asr boshlarida O'rta Osiyo va Kavkazning markaziy shaharlari hamda Qozonda yuzlab ziyoli kishilar xurofot va chor Rossiyasining istibdodidan qoloq ahvolga tushib qolgan o'z xalqlarining ijtimoiy-madaniy turmushini, ong-u saviyasini ko'tarish, taraqqiy ettirish maqsadida nihoyatda katta ma'rifatchilik ishlarni olib bordilar. Dastlab eskicha ta'lim tizimini isloh etish masalasini ilgari surdilar va shu niyatda tovush metodiga asoslanuvchi "usuli savtiya" yoki "usuli jadid" maktablari ochdilar. Yevropacha yo'nalishdagi teatr to'garaklari tuzdilar, turli gazeta va jurnallar chiqardilar. Teatr tomoshalari va matbuotdan tushgan mablag'larni dunyoviy ilmlarni o'qitadigan yangicha, ilg'or usuldagi maktablar uchun sarfladilar va bu maktablarda mahalliy xalq bolalarini o'qitdilar. Ular o'z millatlaridan yetuk olimlar, xalq xo'jaligi sohalarining zamonaviy bilimdon mutaxassis-lari, madaniyat arboblari yetishib chiqib, yurtni obod, Vatanni ozod, farovon etishlarini orzu qildilar va shu yo'lda fidoyilik ko'rsatdilar.

Abdulla Avloniy ham shu maqsadda yashadi va faoliyat ko'rsatdi. 1907-yili Miroboddagi o'sha uyida "Shuhrat" nomli gazeta nashr qildi. O'z mahallasida maktab ochdi, "usuli jadid" maktablari uchun to'rt qismdan iborat "Adabiyot yoxud milliy she'rlar" hamda "Birinch muallim", "Ikkinchi muallim", "Maktab Gulistoni", "Turkiy Guliston

yoxud axloq" kabi darslik va o'qish kitoblari yaratdi. Maktab-maorif ishlariga ko'mak ko'rsatuvchi "Jamiyati xayriya" tashkil etdi. "Nashriyot" shirkati tuzib, Xadrada "Maktab kutubxonasi" kitob do'konini ochdi.

Abdulla Avloniyni o'tgan asrning 20-yillariga qadar ko'rsatgan faoliyatida teatrchilik sohasidagi xizmatlari alohida ahamiyatga molik. Uning 1913-yilda tashkil etgan "Turon" nomli teatr to'garagi Turkistondagi birinchi yarim professional teatr truppasi edi. "Turon" teatr to'garagi keyinchalik Hamza tuzgan truppa bilan qo'shilib, hozirgi bosh teatrimiz – Milliy akademik drama teatriga asos bo'ldi. Avloniy truppasida keyinroq mashhur davlat va madaniyat arboblari bo'lib tanilgan Nizomiddin Xo'jayev, G'ulom Zafariy, Shokirjon Rahimiy, Shamsiddin Sharafiddinov (Xurshid), Mannon Uyg'ur kabi yoshlar qatnashar edilar. Ular Mahmudxo'ja Behbudiy, Hoji Muin, Hamza Hakimzoda, Abdulla Badriy, Abdulla Qodiriylarning pyesalarini qo'yishar, o'zlari original sahna asarlari yozib sahnalashtirishar va rollarni ham o'zlari ijro etar edilar. 1916-yili ozarbayjonlik mashhur aktyor Sidqiy Ruhillo Toshkentga kelib, "Turon" trup-pasi bilan birga "Layli va Majnun" spektaklini qo'yadi. Avloniy bu spektaklda Qaysning otasi Malu' rolini ijro etadi. Shu davrda Avloniy o'z teatri uchun "Advokatlik osonmi?", "Pinak", "Siz va biz" nomli pyesalar ham yozib, sahnaga qo'yadi, tatar hamda ozarbayjon jadid dramaturglarining asarlarini o'zbek tiliga tarjima qiladi. Truppa a'zolari bilan 1914–1916-yillar davomida Farg'ona vodiysida gastrollarda bo'ladi.

Demak, Abdulla Avloniy asarlari orada bir asr vaqt o'tib ham shu qadar ahamiyatini saqlayotgan ekan, yuzlab ulug' alloma va adiblarimiz qatorida u zoti sharifning qutlug' tavallud sanasini nishonlash biz avlodlar uchun ham qarz, ham farzdir. Zero, qutlug' sana bahonasida Avloniy hayoti, faoliyati va ijodiyoti yana qayta-qayta yodga olinadi. Bugunimiz va istiqbolimiz uchun ma'naviyat saboqlari bo'lib xizmat qiladi. "Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadurg'on oinayi hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur... Yohu, biga na bo'ldi? Bobolarimiz yo'ldan chiqib ketduk! Yaxshi qo'shningdan olguncha, yomon uyingni qidir, demishlar. Bobolari-mizga yetushgon va yaragan muqadd-

as til va adabiyot bizga hech kamlik qilm-as. O'z uyimizni qidirsak va oxtarsak, yo'qolganlarini ham toparmiz. Yo'qol-sa yo'qolsun, o'zi boshimga tor edi, deb Ovrupo qalpog'ini kiyub, kulgu bo'lmak zo'r ayb va uyotdur".

Bu fikrlar nafaqat til va adabiyotimiz, shu sirada hisoblangan yana ko'plab qadriyatlarimizni, milliy xususiyatlarimizni ham asrab-avaylamoqqa bir da'vatdir. Bu ham yana ko'p durdona fikrlari qatori Abdulla Avloniyni bizga zamondosh etadi.

1917-yil Fevral inqilobidan keyin Abdulla Avloniy yanada qizg'inroq ijtimoiy faoliyat bilan mashg'ul bo'ladi. Turli tashkilotlar tadbirlarida qatnashadi, mahalliy muallimlardan iborat "O'qituvchilar soyuzi"ni tuzib, tashviqot-targ'ibot ishlarni olib boradi, "Turon" ismida gazeta nashr etib, unda ilg'or qarashlarni olg'a suradi. Biroq, Avloniyni hayoti tekis kechmadi. Millatning taraqqiyoti yo'lida nimaiki xayrli ishga bosh qo'shmasin, kurashlarsiz bo'lmadi. Avloniy nashr etgan birinchi gazeta "Shuhrat"ning o'nta soni chiqar-chiqmas hukumat tomonidan ta'qiqlandi. "Turon" gazetasining taqdiri ham shunday kechdi. Hatto Avloniy "kofir" deb e'lon qilinib, o'limga mahkum etildi. Faqat matbuot orqali "tavba-tazaru" uni o'limdan saqlab qoldi.

Avloniy ko'pgina hur fikrli kishilar qatori inqilobiy o'zgarishlarga umid bilan qaradi, uning g'alaba qilishiga, g'alabalari mustahkamlanishiga imkoni qadar hissa qo'shdi. "Ishtirokiyun" (hozirgi "O'zbekiston ovozi") gazetasiga muharrirlik qildi. Biroq inqilobning, sho'rolar hokimiyatining xalq manfaatiga tobora zid yo'ldan borayotganini ham ang-lay oldi. 1919-yilda "Xafalik soatda" degan she'r yozdi. Unda shunday satrlar bor edi:

*Derlarki oy(n)ing yarmi qaro, yarmisi
ravshan,
O'ttiz kuni ham bizga bukun qop-qarodur
ko'raman.*

("Ishtirokiyun" gazetasi, 13-son)
1919–1920-yillarda Avloniy Afg'o-nistonning Hirot shahrida Sovet elchi-xonasida bosh konsul bo'lib ishladi. Xalqlarimiz o'rtasida birodarlikni mustahkamlashdagi xizmatlari uchun Afg'o-niston shohi Omonulloxon tomonidan kumush soat bilan taqdirlandi. Bular Avloniy shaxsiyatining tariximizdagi o'rni qanchalik muhim ekanligidan dalolat.

O'tgan asrning 20-yillarda Avloniy

turli ijtimoiy vazifalar bilan birga mual-limlik kasbini ham davom ettirdi. Harbiy maktabda, O'rta Osiyo Davlat uni-versitetida o'zbek tili va adabiyotidan dars berdi, ilmiy metodik ishlar bilan mashg'ul bo'ldi. Avloniy o'zbek ziyolilari orasida birinchilar qatori professorlik darajasiga va "Mehnat qahramoni" unvoniga sazovor bo'ldi.

Abdulla Avloniy 1934-yil avgustida Toshkentda vafot etdi.

Mamlakatimizda XX asrning 30-yil-larning ikkinchi yarmilarida boshlangan yalpi ta'qib, halol, diyonatli kishilarga nojoiz ayblar taqash oqibatida, Avloniy mansub avlod shafqatsiz qatag'onga uchradi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Munav-var qori Abdurashidxonov, Hamza, Ta-vallo, Cho'lpon, Fitrat, Siddiqiy-Ajziy, Sidqiy Xondayliqiy, Mirmuhsin Sher-muhamedov, Mirmulla Shermuhamedov, So'fizoda, Sadriddin Ayniy va yana o'nlab ma'rifatchi ziyolilar nomi bilan bog'liq jadidchilik harakati nohaq qoralandi, ularning na nomlari va na asar-lari (ayrimlarini istisno qilganda) uzoq yillar tilga olinmadi. Millatning istiqbo-li yo'lida hayotini bag'ishlagan jadid zi-yolilar qatorida Abdulla Avloniy asar-lari ham uzoq vaqt nashr etilmadi. Faqat o'tgan asrning 60-yillar oxiri va 70-yil-larga kelib, uning asarlarini muayyan qisqartirishlar va ayrim tahrirlar bilan qisman chop etishga muvaffaq bo'lindi. Bu Avloniy asarlariga qiziqishning yillar o'tib susayganligidan emas, balki sho'ro mafkurasining tazyiqi va ta'qiblari tu-faydi shunday bo'ldi. Faqat Istiqlol yil-larida, zahmatkash-fidoyi olim profes-sor Begali Qosimov sa'y-harakatlari bi-lan buyuk ma'rifatparvar adib asarlarini to'la holda, izoh va salmoqli so'z boshi bilan ikki jildda nashr etishga muvaffaq bo'lindi. Ayrim she'rlari, ma'rifiy asar-larining alohida nashrlari amalga oshirildi. Istiqlol Abdulla Avloniyni nomi va asarlarinigina emas, ayni chog'da u ham-da uning maslakdoshlari orzularini ham ro'yobga chiqardi.

Ko'pchilik Avloniyni eslaganda, uning "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo fa-lokat masalasidir!" degan hikmatli so'zla-rini yodga oladilar. Bu bobomizning vaqt nuqtayi nazaridan so'nggi va ma'no-maz-mun jihatdan bag'oyat teran, nazariy ham-da amaliy bilim, qarash va kuzatishlari-ni, hayotiy tajribalarining o'ziga xos falsafiy umumlashmasi edi.

She'riy lahzarlar

* * *

Nayqamishday tani titradi avval,
Avval daraxtlarga o'xshab ko'rindi.
Qo'llari qo'limga berguncha savol,
Ko'zlari ko'zimga o'rgandi...

Bo'ldi! Boshqa sir yo'q, tan jimirladi,
Bo'ldi! Soniyalar tushdi otidan.
Qarab turib meni asrab qolmading,
Xudoyim, shu gulning talofatidan.

Endi nima qildim, nimalar qildim,
Suv ostida toshlar bo'lsam qaniydi.
Izlarini bossam, tovonim kuyar,
Shamolin yuragim taniydi.

Qani bilmasaydim, tanimasaydim,
Eslolmasam edi raqamlarini.
Kech qolgan bo'lsaydim yoki kelmagan,
Ilg'amasam edi qadamlarini.

Bilmay ro'yxatidan tushirib kotib,
Yo o'zim bildirmay tushgan bo'lsaydim.
Faqat bu yerdamas, shu paytda emas,
O'zga bir manzilni obod qilsaydim.

Bir kun oldinroqmi, bir kun keyinmi,
Qani kesishmagan bo'lsaydi yo'lim.
Faqat unga emas, bir unga emas,
Boshqalarga salom eltsaydi qo'lim.

...hammani tanigan hilolday olis,
Hech kim yashamagan qismat boshimda.
Meni yuragimdan osding, Xudojon,
Muhabbat yoshimda, shoir yoshimda.

Shundog'am iztirob shaklida edim,
Teskari kelgandim tegirmoniga.
Yurakni uyg'otib, meni uxlatib,
Ismin yozib qo'yding ustixonimga.

Kiprigi ko'ksimga soya solgan shom,
Yurishni eslatib oyoqlarimga.
Uning zulflariga qo'llarim yetib,
Yurak tomgan edi barmoqlarimdan.

Yo'l o'zi bormidi, tugaganmidi,
Nechun kelganimni eslatgin Alloh!?
Bitta nigohidan avliyo bo'ldi
Uchgacha sanashni bilmagan dunyo.

Mezonday sirg'alib, yomg'irday sizib,
Ketdi! Ko'kragimga berkindi jodu.
Yongan sari yonar bir o'tdaman men,
Yo, Rab! Shundan so'ng ham
qiyomat bormu?!

Tani nayqamishday titragan edi...

Shodmonqul SALOM

MUQADDAS TUYG'ULAR KUYCHISI

Joriy yilning may oyida muhtaram Prezidentimiz tomonidan Adiblar xiyobonini adabiyot, ma'rifat va madaniyat maskaniga aylantirish, har bir adib haykalini muayyan oliy o'quv yurtiga birlashtirib, bu yerda ochiq darslar, ma'rifiy tadbirlar o'tkazish bo'yicha tavsiyalar berilgan edi. Shu bilan birga, adiblar ijodini chuqur o'rganish, ularning ibratli umr yo'llari haqida kitoblar va filmlar yaratish, yangi asarlar yozish muhimligi ta'kidlangan edi hamda biz tahsil olayotgan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutiga Muhammad Yusuf ijodini chuqur o'rganish va targ'ib etish vazifasi yuklatilgan edi.

Bugungi kunda ushbu tavsiya hamda topshiriqlar yuzasidan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida ham bir qator xayrli ishlar amalga oshirilmoqda. Institutimizning ijtimoiy tarmoqlarida shoir she'rlarini mahorat bilan ijro etish bo'yicha #Challenge tashkil etdik va unda faol ustozlar bilan birgalikda mingga yaqin yoshlar qamrab olindi. Shoir hayoti va ijodini kreativ yoritish bo'yicha videoroliklar tanlovi e'lon qilindi. Joriy yilning 15-oktabr sanasida respublika ijodkor yoshlari ishtirokida "Yoshlarning ma'naviy olamini yuk-saltirish va ularni vatanparvarlik ruhida

chisi" mavzuidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasini o'tkazish belgilangan. Turkiya davlatining nufuzli "Qardosh adabiyotlar" jurnalining bir sonini shoir xotirasiga bag'ishlab chop etish ishlari ustida ham hozirda qizg'in ishlar olib borilmoqda. Bundan tashqari, institutda talaba yoshlarning bitiruv malakaviy ishlari, magistrlik dissertatsiyalari mavzularini Muhammad Yusuf hayoti va ijodi bilan bog'lab o'rganilishi, shoir she'rlarini turkiy tillarga tarjima qilish, uning ijodiga bag'ishlab xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlar tashkil etib borish bo'yicha alohida yo'l xaritalari ishlab chiqildi.

Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy bog'i hududida bunyod etilgan Adiblar xiyobonida har hafta ma'daniy-ma'rifiy, betakror adabiy kechalar tashkil etyapmiz. Birida, shoir hayoti va ijodini sahna ko'rinish orqali namoyish et-sak, ikkinchisida, shoir she'rlari asosida qo'shiq qilingan unutilmas ohanglarni jonli ijroda tarannum qilyapmiz. Zamon bilan hamnafaslikda tadbirlarimizni talabalarimiz e'tiboriga masofaviy "Zoom" platformasi orqali havola etib boryapmiz. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus hamda Farg'ona mintaqaviy filiallari talabalari bilan birga, Andijon shahrida barpo

XO'JAMQULOV BOBUR
BAHTIYOR O'G'LI

«MADANIYAT VA SAN'AT MASALALARI» QO'MITASI

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti "Xalq ijodiyoti" fakulteti "Ijtimoiy-madaniy faoliyat" ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi, Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti yetakchisi birinchi o'rinbosari Xojamqulov Bobur Bahtiyor o'g'li O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi huzuridagi Yoshlar parlamenti "Madaniyat va

san'at masalalari" qo'mitasiga deputat sifatida saylanadi. Institutimiz yoshlari nomidan ushbu tayinlov bilan Boburni samimiy muborakbod etamiz, uning endilikdagi mehnat faoliyatiga ulkan muvaffaqiyatlar tilab qolamiz!

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Matbuot xizmati

Ta'ziya

Bugun har birimiz o'zimizni asrashimiz har qachongidan ham zarur. Bu pandemiya nafaqat bizni, butun dunyoni larzaga solmoqda. Eng yomoni – yaqinlarimizdan ayrilmoqdamiz. Na iloj, bularning barchasini taqdiri azal bilan, Yaratganning irodasi bilan bog'laymiz. Yaqin safdoshlarimizdan "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasini mudiri vazifasini bajaruvchi, filologiya fanlari nomzodi, dotsent TOHIRJON HAYDAROV yaqinda bu olamni tark etdi.

Uning oila a'zolariga, yaqinlariga Allohdan sabr tilaymiz. Yaratganning o'zi joylarini jannatda qilsin. Tohirjonning orzu-umidlari bir dunyo edi. Safimizga qo'shilganiga bir yil ham bo'lmagan edi. Lekin jamoamiz orasida shu qisqa vaqt oralig'ida o'ziga xos obro'-e'tiborga sazovor bo'la oldi.


Kuni kecha ikkinchi bir noxush xabarni eshitdik: O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Nukus filiali direktori, tarix fanlari nomzodi, dotsent PAXRATDIN KUDAYBERGENOVICH PALUANIYAZOVning ham bevaqt o'lim oramizdan olib ketdi. U 46 yoshda – umrining, ijodining eng

qizg'in pallasida edi. Men u inson bilan ko'p marotaba muloqotda bo'lganman. Ajoyib rahbar, jamoa dardi bilan yashaydigan inson edi. Nukus filialida ta'lim sifatini yuksaltirish, moddiy-texnik bazasini yaratish, yuqori sifatga ega kadrlar tayyorlash borasida katta ishlarni amalga oshirib kelayotgan edi. Uning ham orzulari katta edi. Na iloj, inson qismati faqat Yaratgangagina ayon ekan.

Albatta, do'stimiz, hamkasbimiz Paxratdin Kudaybergenovich Paluaniazovning nomi xotiramizda abadiy yashaydi. Uning orzu-umidlarini uning farzandlari, izdoshlari, shogirdlari amalga oshirib, uning ruhini shod etib yuradilar. Biz bunga ishonamiz.

Do'stimizning oila a'zolariga, yaqinlariga o'zimizning chuqur ta'ziyamizni, hamdardligimizni bildiramiz. Olloh rahmat aylasin. Qolganlarga sog'liq, omonlik tilaymiz.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti jamoasi nomidan
Ibrohimjon YO'LDOSHEV,
institut rektori



tarbiyalashda Muhammad Yusuf ijodining o'rni" mavzuida respublika ilmiy-amaliy konferensiyasini o'tkazishga qizg'in tayyorgarlik ko'ryapmiz.

Konferensiya to'plami uchun talabalar tomonidan yuborilayotgan maqolalarni o'qir ekanmiz, shoir ijodini chuqurroq o'rganishga, uning she'rlarida ilgari surilayotgan vatanparvarlik, yurtga sadoqat g'oyalarini yanada teranroq anglashga bo'lgan intilishni ko'rib quvondik. Demak, harakatlar besamar ketmayapti. "Muhammad Yusuf" nomidagi ko'krak nishoni va maxsus stipendiya joriy etilganligini eshitgan talaba-yoshlarimiz allaqachon maqsadli harakatlarni boshlab yuborganligi ham quvonarli hol. Ushbu mukofot shoir hayoti va ijodiga oid izlanishlar olib borgan, tashabbuskor, ijodkor professor-o'qituvchilar, iqtidorli talaba yoshlarga taqdim etilishi ko'zda tutilgan. Muhammad Yusufning tavallud kuni munosabati bilan aprel oyida uning hayoti va ijodiga bag'ishlangan "Muhammad Yusuf – Vatan va muhabbat kuy-

etilgan Muhammad Yusuf nomidagi ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilari ham ushbu tadbirlarimizda masofaviy, faol ishtirok etishmoqda.

So'zni qadrlagan, o'z ona diyorini sevib, xalqiga sadoqat bilan xizmat qilgan, Vatanini sidqidildan tarannum etgan shoirini xalqi ham, Vatani ham qadrlab, e'zozlaydi. Elu yurtning qaddi-bastini yuksak, munosib so'z bilan ko'rsata bilmoq hamma shoirlarga ham nasib etavermaydi. Yuksakka ko'tarilganda kishi yanada yuksakroq manzillarni ko'rish mumkin. Hech shubha yo'qki, Muhammad Yusuf she'riyati milliy o'zlikni anglash, ozod va obod Vatanni tarannum etish, oq sut berib ulg'aytirgan ona xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish borasida yosh avlod uchun o'ziga xos ijod va ibrat maktabi vazifasini o'taydi.

Jumagul NISHONOVA,
Kamoliddin UMAROV,
O'zDSMI "Madaniyatshunoslik"
mutaxassisligi magistrantlari

Muassis:
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Bosh muharrir:
Azizxo'ja TILLAXO'JAYEV

Tahrir hay'ati:
Go'zal XOLIQULOVA
Ma'rufjon YULDASHEV
O'tkur ISLAMOV
Antonino KOSHELEVA
Rashid USNATOV
Jumagul NISHONOVA
Mas'ul kotib:
Alimurod TOJIYEV
Nafisa RAIMQULOVA

Tahririyat manzili: 100164 Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Yalang'och mavzesi, 127 A uy.
Telefon: (71) 230-28-03. (71) 230-28-13.
www.dsmi.uz; nashriyot@dsmi.uz

Gazeta har oyning oxirgi haftasida «NISO POLIGRAF» MCHJ bosmaxonasida chop etiladi.
Manzil: O'rta Chirchiq tumani, Oq ota QFY, Mash'al mahallasi, Markaz –1.

Sahifalovchi:
Shahriyor IBRAGIMOV

Gazeta Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasida № 02-00166 raqami bilan 2012-yil 19-dekabrda ro'yxatga olingan.

Gazeta institutning tahririyat va nashriyot bo'limida tayyorlandi.
O'lchami – A3, hajmi 2 bosma taboq.
Nusxasi – 500 dona. Narxi kelishilgan narxda.
Chop etishga 10.07.2020 yilda topshirildi.